

YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIIY- HUQUQIY ASOSLARI

Muhammadyunusova Mohistara Muhammadilxom qizi

Sotsiologiya bo'yicha falsafa doktori, PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14044829>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Mamlakatimizda so'nggi yillarda gender tenglik atamasini erkin qo'llash imkoniyati yuzaga keishi bilan birgalikda, ushbu yo'nalishda mamlakat siyosatida keskin yangiliklar amalga oshirilgani hamda buning aholi turmush tarziga bo'lgan ahamiyati darajasi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar Haqiqiy tenglik, gender tenglik tushunchasi, tinchlikni mustahkamlash, qonunchilik hujjatlari, Vazirlar mahkamasi, xotin-qizlar maqomi, Konstitutsiya, Oliy ta'lim tizimi, qizlarning professional ta'limi, milliy xususiyatlar.

Erkaklar bilan xotin-qizlar o'rtasidagi to'liq va haqiqiy tenglik qonun ustuvorligiga asoslangan adolatli va demokratik jamiyatning g'oyat muhim elementi hisoblanadi. Jamiyatning yaxlit rivojlanishi va uning barcha a'zolari farovonligining oshirilishi erkaklar bilan xotin-qizlarning bu jarayonda to'liq va teng ishtirok etishi uchun baravar imkoniyatlarni taqozo etadi. Ayollar tomonidan inson huquqlarini to'la va teng tasarruf etishlari mamlakatda tinchlikni mustahkamlash va demokratiya uchun eng muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

O'zbekistonda xotin-qizlar aholining 50 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Shuning uchun ham ularning intellektual-ma'naviy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligi nafaqat mamlakatimiz rivoji uchun, balki oilalar mustahkamligi uchun ham juda muhimdir. So'nggi yillarda gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, sohaga oid 25 ta Qonunchilik hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatida xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi.

Bunday natijalar jamiyatimizda gender muvozanatni shakllantirishda erkaklar va xotin-qizlarning maqomini tenglashtirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini ta'minlashga hizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, "O'zbekiston barqaror rivojlanishning beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va etakchilik qilishi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur bo'ladi.

Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi"[1].

Mazkur davlat dasturi asosida mamlakatimizda gender tengligiga erishish, bu borada boshlangan ishlar samaradorligini oshirish, yuqori natijalarga ega bo'lishga doir ko'plab tashkiliy-huquqiy ishlar boshlab yuborildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 46-moddasida xotin-qizlar va erkaklar teng huquqli ekanliklari mustahkamlab qo'yildi. 1995 yil 6 mayda mamlakatimiz 1979 yil 18 dekabrda Nyu-Yorkda qabul qilingan "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham

berish to'g'risidagi"[2], 1997 yil 30 avgustda "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi"[3], "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risidagi" konventsionalarga qo'shildi. Bu esa xorijiy tajribaning umume'tirof etilgan huquqiy normalariga tayangan holda, xalqimizning mental xususiyatlarini e'tiborga olgan holda, mamlakatimizda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha muhim qadamlar qo'yishga asos bo'ldi.

2019 yil 2 sentyabrda O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi 561-son, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son qonunlari, shuningdek, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish borasida 15 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinishi, mamlakatimizda ushbu masalaning xalqaro andozalar darajasiga ko'tarilganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5325-son Farmoni, 2018 yil ^[1]_{SEP}2 iyuldagi "Ijtimoiy rehabilitasiya qilish va moslashtirish, shuningdek oilaviy-maishiy zo'rlik ishlatishning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3827-son, 2019 yil 7 martdagi "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4235-son qarorlari qabul qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil ^[1]_{SEP}12 apreldagi "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi, VM-285-sonli qarorida esa kam ta'minlangan, yordamga muhtoj bo'lgan og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga manzilli yordam ko'rsatish, ularni uy-joy bilan ta'minlash choralari belgilab berildi.

2018 yil 14 martda Vazirlar Mahkamasining "Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash jamoat fondi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Bu qaror xotin-qizlarni og'ir ijtimoiy ahvoldan chiqarishda muhim qadam bo'ldi.

Ayol ijtimoiy masalalarni teranroq tuyishining sababi, u oila bekasi, bolalar tarbiyachisi, ularning sog'lig'i uchun qayg'uradigan qalb shifokori, shu bilan birga hayotda faol siyosatchi sifatida qonunlarning yanada hayotiy bo'lishi uchun kurashadilar, aniq masalalar, muammolarning echimlarini ifodalash uchun jon kuydiradilar. Binobarin, parlamentda ayollar soni keskin oshganligi, olti nafar xotin-qizlarning esa tuman hokimi vazifasiga tayinlanganligi mamlakatimizda gender tenglik ta'minlanishi sohasida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, ayollarga davlat va jamiyat taqdiriga daxldor qarorlarni hayotga tatbiq etish, xususan, qonunlarni ishlab chiqish, qabul qilish, islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida bevosita qatnashishlari uchun keng yo'l ochildi. Joylardagi mas'ullarimiz qatorida, ayol senatorlar va deputatlar ham muammolarni o'rganib, ularni manzilli bartaraf etish borasida o'zlarining muhim hissalarini qo'shib kelayotganliklari, gender tenglikni ta'minlash masalasiga ham bevosita taalluqlidir.

Xotin-qizlarga erkaklar bilan teng huquqlar berilgan, qonunlarimizda cheklovlar bartaraf etilayotgan bo'lsa-da, gender tengligini ta'minlash borasidagi ishlar kolami katta bo'lib qolmoqda. Shu o'rinda jahon tajribasini tahlil qiladigan bo'lsak, nufuzli Jahon iqtisodiy

forumi har yili jamiyatdagi gender munosabatlarida (erkak va ayollar orasida)gi tafovut haqida hisobot tayyorlaydi. Ushbu hisobotda ayollar va erkaklarning siyosiy hayotdagi o'rni, iqtisodiyot, o'rta ta'lim olish va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishlaridagi tafovutlar hisobga olinadi.

Demak, faqat qonunchilikda teng huquqlikni belgilab qo'yishning o'zi etarli emas, buning uchun faol siyosat olib borilishi talab etiladi. Erkaklar va ayollarning jamiyat hayotida teng ishtirok etishlari mamlakatning rivojlanishida muhim omildir, chunki mamlakatda kuchli raqobat sharoitining vujudga kelishi, ushbu mamlakatga o'z salohiyatidan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi. Shuningdek, erkaklar va ayollarning siyosat, iqtisodiyot va jamiyatda teng ishtirok etishlari uchun samarali choralar ko'rish, faol siyosat olib borish ham sezilarli ijobiy natijalarga erishishga olib keladi. Qonun ijodkorligiga normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizasi nomli yangi institut kirib keldi. Har bir mehnat jamoasida gender tenglik bo'yicha maslahat kengashlarini tuzish taklifi ishlab chiqildi va bu tegishli huquqiy hujjatlarda ham o'z aksini topdi.

Demak, ushbu masalaning yuqorida keltirilgan tahlilidan kelib chiqadigan xulosa, ayol va erkak o'rtasidagi munosabat, jamiyat hayotining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi va jamiyat o'zgarishlariga, hayot sharoitlariga mos ravishda takomillashib boradi.

Ma'lumki, oliy ta'lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi ayollar orasida ish bilan ta'minlanganlik darajasini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, biz siyosat va hukumatda ham ayollar sonini oshirishga alohida e'tibor qaratishimiz kerak, chunki ayollar oliy ma'lumot olishining o'zi etarli emas, ular davlat va jamiyatni boshqarishda ham faol ishtirok etishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida xotin-qizlarning ta'limiga qaratilgan e'tibor ham juda muhim.

Qizlarning professional faoliyat sohasini tanlashini tahlil qilish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish, ayollarning, ayniqsa yosh qizlarning qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish uchun ular qiziqishining turli yo'nalishlari bo'yicha assotsiasiyalar tashkil etish, qizlar ta'limini qo'llab-quvvatlash xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga monelik qiladigan aqidalarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, gender tenglikka erishishda davlat tomonidan erkaklar va xotin-qizlar huquq hamda manfaatlarini qonuniy himoya qilishning huquqiy asoslari yaratib berilishi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy himoya qilish, og'ir ijtimoiy ahvoldan chiqarishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Bu ishlar o'z navbatida mamlakatimizda gender tenglikning ijtimoiy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtiradi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni xalqimizning milliy xususiyatlari va o'ziga xosligidan kelib chiqib amalga oshirilishida muhim rol o'ynaydi.

References:

1. Хелена Фрейзер: Ўзбекистон гендер тенгликни таъминлаш бўйича муҳим қадамларни қўймоқда <https://strategy.uz/index.php?news=745/>
2. As'yanov Sh. M, Bakaeva F. X. O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish.- Toshkent.: "Mega Basim", 2008. – B.7.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi 501-sonli Qarori, 1997 yil 30 avgust. <https://www.lex.uz/docs/86886>.